Бозорова Озода Рахимовна	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANKLARNING CHAKANA KREDITLASH AMALIYOTI TAHLILI	872
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
XALQARO STANDARTLARNI AMALGA OSHIRISH JARAYONIDA AUDITORLAR VA KORXONALAR UCHUN AMALIY TAVSIYALAR.....	877
Ibragimov Azizbek Keldibek o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	882
Akbarov Husniddinjon Mo'ysin o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH	888
Omanov Sanjar Qurbonazar o'g'li	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI SOLIQ IMTIYOZLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI.....	894
Usmonov Shavkatjon Shukurovich	
АДАПТАЦИЯ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ В НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ	901
Абилов Эльман Худаверди оглы	
QURILISH SOHASIDA KORPORATIV IJTIMOIIY MAS'ULIYAT: XALQARO TAJRIBA VA QIYOSIY TAHLIL.....	906
Murotkosimov Shoxrux Abdisalimovich	
TADBIRKORNING KREDIT, FOIZ, SOLIQ TO'LOVLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI XUSUSIDA.....	914
Hakimov Odil Arziqulovich	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDI IQTISODIYOTNING REAL SEKTORIGA KIRITILGAN INVESTITSIALARNI MOLIYALASHTIRISHNING XUSUSIYATLARI	918
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KORXONALARDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	925
Xalilova Aziza Rustamovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	930
Uzakova Umida Ruziyevna	
INVESTITSIYA JALB QILISHNING HUDUDIIY MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIIY MAZMUNI.....	936
Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
HUDUDLARNING TURISTIK SALOHIIYATINI OSHIRISHDA TURISTIK ZONALARNING AHAMIYATI	940
Umarova Mahliyo Yaxshiboy qizi	
HUDUD OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI SANOATI ISHLAB CHIQARISH KO'RSATKICHLARI SAMARADORLIGINING EKONOMETRIK VA STATISTIK TAHLILI.....	945
Xursanov Sherzod Ulaboyevich	
YUK TASHUVLARIDA LOGISTIK PROVAYDERLAR FAOLIYATINING NAZARIY-USLUBIIY ASOSLARI	951
Mannapova Feruza Faxriddin qizi	



MAMLAKAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	956
Mirzaraximova Aziza Azimdjanoyna	
IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI RAQOBATCHILIK MUHITINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	963
Maxmudova Ferangis Raxmatillayevna	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT TARAQQIYOTINING HOLATI VA USTUVOR MAQSADLI KO'RSATKICHLARI	968
Saidova Madinaxon Hoshimjon qizi	
FERMER XO'JALIKLARINING O'ZBEKISTON AGRAR SEKTORIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	973
Islamova Dilnoza Isamidinova	
ZIYORAT TURIZMINING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	978
Uzaqov Jamshid Norboyevich	
TIJORAT BANKLARINING EMISSION OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	983
Shaymanov Mexriddin Ibragimovich	
ISLOM MOLIYASIDA MAJBURIYAT VA OMONAT MEXANIZMLARI: RAHN, VADIYA VA HAVALA.....	987
Sadikova Ra'no Abdullaevna	
FIRIBGARLIK BILAN BOG'LIQ AUDITORLIK TEKSHIRUVI RISKLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI	991
Sirojiddinov Ikromiddin Qutbiddinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ И ОЦЕНКА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ UZAUTO MOTORS.....	996
Шарипов К.А., Зайнутдинова У.Дж.	
XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA BANDLIK BILAN TA'MINLASHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR VA MUAMMOLAR TADQIQI.....	1005
Mirzayev Qulmamat Djonuzokovich, Saparov Murod Irgashovich	
YO'LOVCHI TASHISH XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	1010
Alisher Kurambayev	
SUG'URTA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TAKAFUL SUG'URTASINING O'RNI VA IMKONIYATLARI.....	1014
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING JORIY HOLATI TAHLILI.....	1020
Valikulov Sherzod Zaynitdinovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA MARKETPLEYSLARNI SHAKLLANTIRISH: INVESTITSIYALAR, XARAJATLAR VA FOYDA.....	1029
Axmedova Dilshoda Xayrulla qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MARKETING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	1033
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich, Muminova Shahlo Madaminjon qizi	
OLIY TA'LIMDA GENDER TENGLIKNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	1039
Xaydarova Sayyora	
ANALYZING THE COMPETITIVE ADVANTAGES OF SOUTH KOREA IN GLOBAL MICE TOURISM: HISTORICAL AND CULTURAL DIMENSIONS.....	1043
Ortikova Sabohat, Gulomova Mukhlisa, Ochilova Hilola Farmonovna	
MEHMONXONA BIZNESIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)	1050
Usmanova Gulida Valiyevna	
ETHICAL ASPECTS OF ECOTOURISM: BALANCING SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND MORAL RESPONSIBILITY.....	1055
Gulbakhor Sattarovna Abdullakhanova	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSIYA FAOLLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	1062
Sobirov Abdurasul Abdugafarovich	



KADRLAR BOSHQARUVIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1068
Urazov Sadulla Shodiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY JINOYATLARNING OLDINI OLISHDA KOMPLAENS-NAZORATNING ROLI.....	1074
Zokirov Ismoiljon Ibroximovich	
AGROSERVIS SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH YO'LLARI	1078
Pardayev Mamayunus Qarshibayevich, Feruz Nematullayevich Abilov	
KO'MIR UCHUVCHI KULI ASOSIDAGI FLY ASH BETON VA GEOPOLIMER MATERIALLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN IQTISODIY VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH	1083
Muradov Botir Xayat	
КРЕАТИВНАЯ ЭКОНОМИКА В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПРЕДПОСЫЛКИ В УЗБЕКИСТАНЕ	1091
Рахимова Манзура Хамид кизи	
DUE DILIGENCE IN AUDITING AS A FACTOR ECONOMIC EFFICIENCY IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	1098
Sidikov Dilmurod	
MAJBURIYATLAR HISOBINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1102
Ergasheva Vasila Abdumajitovna	
ИННОВАЦИОННЫЕ МАРКЕТИНГОВЫЕ СТРАТЕГИИ И ПРОЦЕССЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ	1106
Рахимова Тамила Баходур кизи	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1113
Abdusattarova Dildora Bohodirovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH BORASIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	1120
Djurayeva Lola Abdugabbarovna	
HUDUDLARDA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA DAVLAT BUDJETIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1125
Egamnazarova Gulnoza Xolmurod qizi	
O'ZBEKISTON ISLOHOTLARI ISTIQBOLIDA BARQAROR RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI HAMDA ESG INDIKATORLARINI JORIY ETISH	1129
Mirzaaxmedova Nodira Asqarali qizi, Tursunxodjayeve Shirin Zafar qizi	
O'ZBEKISTONDA KREDIT VA MOLIYAVIY TIZIMNI MODERNIZATSIYALASH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	1135
Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich	
O'ZBEKISTON FRANCHAYZING BRENDLARINING XALQARO BOZORLARDA IMIJINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY BRENDUKLAR YARATISHNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY YECHIMLARI	1140
Xodjayev Anvar Rasulovich	
MINTAQANING INVESTITSIYA OQIMLARI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK TAHLILI	1147
G'oyibnazarov Muhammad Xamidbekovich	
O'ZBEKISTON AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH STRATEGIYALARI VA IMKONIYATLARI	1152
No'monov Otabek O'rmonjon o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION FAOLIYATI VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	1157
Xakimov Akbar Anvarovich	



NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION FAOLIYATI VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH

Xakimov Akbar Anvarovich

Namangan davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: akbarjon_hakimov@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyati iqtisodiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda hududiy investitsiya muhitining xususiyatlari, kapital qo'yilmalar hajmi, moliyalashtirish manbalari, investitsiyalarning tarmoqlar kesimidagi taqsimoti va ularning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi o'rganilgan. Shuningdek, kichik biznesning iqtisodiy o'sish, bandlik darajasi va eksport salohiyatini oshirishdagi roli baholangan. Tahlil natijalari asosida investitsion jarayonlarni faollashtirish, xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish hamda hududiy investitsiya siyosatini samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Namangan viloyati, kichik biznes, investitsion faoliyat, kapital qo'yilmalar, hududiy iqtisodiyot, investitsiya muhiti, moliyalashtirish manbalari, iqtisodiy o'sish, tadbirkorlik, eksport salohiyati, yalpi hududiy mahsulot, investitsiya samaradorligi.

Abstract. This article provides an economic analysis of the investment activities of small business entities operating in Namangan viloyati. The study examines the characteristics of the regional investment environment, the volume of capital investments, sources of financing, sectoral distribution of investments, and their share in the gross regional product. Furthermore, the role of small businesses in promoting economic growth, employment, and export potential is assessed. Based on the results, scientific and practical recommendations have been developed to activate investment processes, improve mechanisms for attracting foreign and domestic investments, and effectively organize regional investment policies.

Key words: Namangan region, small business, investment activity, capital investments, regional economy, investment environment, sources of financing, economic growth, entrepreneurship, export potential, gross regional product, investment efficiency.

Аннотация. В данной статье проводится экономический анализ инвестиционной деятельности субъектов малого бизнеса, действующих в Namangan viloyati. Исследуются особенности региональной инвестиционной среды, объем капитальных вложений, источники финансирования, отраслевое распределение инвестиций и их доля в валовом региональном продукте. Также оценивается роль малого бизнеса в стимулировании экономического роста, занятости и повышении экспортного потенциала. На основе анализа разработаны научно-практические рекомендации по активизации инвестиционных процессов, совершенствованию механизмов привлечения иностранных и отечественных инвестиций и эффективной организации региональной инвестиционной политики.

Ключевые слова: Намаганская область, малый бизнес, инвестиционная деятельность, капитальные вложения, региональная экономика, инвестиционная среда, источники финансирования, экономический рост, предпринимательство, экспортный потенциал, валовой региональный продукт, эффективность инвестиций.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri kichik biznes subyektlarining investitsion faolligidir. Investitsiyalar kichik biznesni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda hududiy raqobatbardoshlikni oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, Namangan viloyatidagi kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyatini



chuqur iqtisodiy tahlil qilish hudud iqtisodiyotining barqaror o'sish tendensiyalarini aniqlash va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish darajasini baholash imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Namangan viloyati kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyatini iqtisodiy tahlil qilishda O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari, rasmiy statistik ma'lumotlar hamda mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Avvalo, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunda belgilab berilgan [1]. Mazkur qonunda kichik biznes subyektlarining huquqlari, investitsiya kiritish erkinligi, mulk daxlsizligi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari mustahkamlangan.

Shuningdek, investitsion jarayonlarning umumiy huquqiy asoslari "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunda bayon etilgan [2]. Ushbu normativ hujjat investitsiya subyektlari, investitsiya turlari, davlat kafolatlari hamda investorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini belgilaydi.

Kichik biznesning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va hududiy iqtisodiyotga ta'siri masalalari Toshkent davlat iqtisoyot universiteti olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Jumladan, professor A. Vahobov va hammualliflar tomonidan tayyorlangan "Iqtisodiyot nazariyasi" darsligida investitsiyaning iqtisodiy o'sishdagi roli, kapital qo'yilmalarning samaradorligi hamda tadbirkorlik faoliyatining makroiqtisodiy ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilingan [3].

Hududiy investitsion muhitni baholash, kichik biznesning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi va investitsiyalar samaradorligini aniqlashda O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari asosiy manba hisoblanadi. Statistika agentligining yillik to'plamlarida kichik biznesning sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish va eksportdagi ulushi bo'yicha aniq ko'rsatkichlar keltirilgan [4].

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan e'lon qilinadigan tahliliy hisobotlarda hududlar kesimida investitsiya hajmi, moliyalashtirish manbalari va kapital qo'yilmalar tarkibi batafsil yoritiladi [5]. Ushbu ma'lumotlar Namangan viloyatida kichik biznes investitsiyalarini iqtisodiy tahlil qilish uchun muhim empirik asos yaratadi.

Yuqoridagi adabiyotlar va rasmiy manbalar Namangan viloyati kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyatini kompleks o'rganish, ularning iqtisodiy samaradorligini baholash hamda hududiy investitsiya siyosatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola Namangan viloyati kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyatini asosiy iqtisodiy-statistik ko'rsatkichlar — yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi, bandlik darajasi, eksport salohiyati hamda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi kabi indikatorlar asosida kompleks tarzda tahlil qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu tahlil hududda, xususan Namangan viloyati misolida, kichik biznesning investitsion rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, mavjud muammoli jihatlarni baholash hamda ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Tahlil dastlab kichik biznes subyektlarining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi hamda investitsiyalar hajmini o'rganishdan boshlanadi (1-jadval).

1-jadval. Namangan viloyati kichik biznes subyektlarining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi¹

№	Hudud	Ko'rsatkich Nomi	Yillar				
			2020	2021	2022	2023	2024
1	Namangan	YaHM ulushi (foiz)	76,3	76,2	74,6	74,3	73,4
2		Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar (mlrd so'm)	8 476,6	8 606,0	9 637,9	13 010,3	44 061,2

2023-yilga nisbatan 2024-yilda Namangan viloyatida kichik biznes subyektlari faoliyatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarda sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Xususan, kichik biznesning yalpi hududiy mahsulotdagi (YaHM) ulushi 2023-yildagi 74,3 foizdan 2024-yilda 73,4 foizga pasayib, 0,9 foiz punktga yoki nisbiy hisobda taxminan

1 O'zбекистон Respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



1,2 foizga kamaygan. Mazkur holat kichik biznes ulushida ma'lum darajada tarkibiy o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 2023-yildagi 13 010,3 mlrd so'mdan 2024-yilda 44 061,2 mlrd so'mga yetib, 31 050,9 mlrd so'mga oshgan. Natijada investitsiyalar hajmi bir yil davomida qariyb 238,7 foizga ko'payib, ya'ni 3,4 baravarga oshgan.

Hududda kichik biznes subyektlarining investitsion faolligi va ularning hududiy iqtisodiyotdagi ulushi so'nggi besh yil davomida muayyan dinamik o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Jumladan, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi tahlil qilinayotgan davrda barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Xususan, 2020-yilda 8 476,6 mlrd so'mni tashkil etgan investitsiyalar hajmi 2023-yilga kelib 13 010,3 mlrd so'mga yetgan bo'lsa, 2024-yilda keskin oshib, 44 061,2 mlrd so'mni tashkil etgan.

2-jadval. Namanagan viloyati tumanlar kichik biznes subyektlariga kiritilgan investitsiyalar hajmi (mlrd)²

№	Xudud nomi	Yillar				
		2020	2021	2022	2023	2024
1	Namangan sh	1109,2	2110,6	3111,5	4112,5	21009,5
2	Pop	442,6	665,3	869,1	1559,2	6372,8
3	Chust	583,6	703,2	687,7	1436,1	3149,4
4	To'raqo'rg'on	509,9	487,3	923,7	1360,1	2266,7
5	Yangiqo'rg'on	233,6	424,8	629,8	1112,7	1809,0
6	Uychi	172,6	208,2	370,5	1077,0	1678,6
7	Chortoq	168,9	315,2	465,7	700,0	1615,3
8	Uchqo'rg'on	132	278,3	341,1	679,1	1548,5
9	Kosonsoy	117,3	279,2	441,7	603,7	1481,4
10	Namangan tumani	488,3	602,3	1047,9	520,9	1417,9
11	Norin	297	314,8	332,6	350,4	988,2
12	Mingbuloq	98,2	149,8	208,8	319,5	430,5

Jadval ma'lumotlari Namangan viloyatida kichik biznesga kiritilgan investitsiyalar 2023-2024-yillarda tumanlar kesimida sezilarli darajada faollashganini ko'rsatadi. Bunda investitsiyalar o'sishining hududlar bo'yicha notekis taqsimlangani kuzatilib, ayrim tumanlarda yuqori sur'atlar qayd etilgan.

Eng yuqori o'sish Namangan shahrida kuzatilgan bo'lib, investitsiyalar hajmi 2023-yildagi 4 112,5 mlrd so'mdan 2024-yilda 21 009,5 mlrd so'mga yetgan. Bu 5,1 baravar yoki taxminan 411 foizlik o'sishni anglatadi. Mazkur holat viloyatda investitsion faollikning asosiy qismi viloyat markazida jamlanganini hamda yirik investitsiya loyihalari asosan Namangan shahrida amalga oshirilganini ko'rsatadi.

Tumanlar kesimida ham investitsiyalar hajmining sezilarli o'sishi kuzatiladi. Jumladan, Pop tumanida investitsiyalar 4,1 baravarga (1 559,2 mlrd so'mdan 6 372,8 mlrd so'mga), Kosonsoy tumanida 2,5 baravarga (603,7 mlrd so'mdan 1 481,4 mlrd so'mga), Norin tumanida 2,8 baravarga (350,4 mlrd so'mdan 988,2 mlrd so'mga) hamda Namangan tumanida 2,7 baravarga (520,9 mlrd so'mdan 1 417,9 mlrd so'mga) oshgan. Shuningdek, Chortoq, Uchqo'rg'on va Chust tumanlarida ham investitsiyalar hajmi ikki martadan ortiq ko'paygan.

Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari To'raqo'rg'on (1,7 baravar), Yangiqo'rg'on (1,6 baravar), Uychi (1,6 baravar) va Mingbuloq (1,35 baravar) tumanlarida qayd etilgan. Bu holat investitsiyalarni hududlar kesimida yanada muvozanatli taqsimlash zarurligini ko'rsatadi.

Namangan viloyatida tadbirkorlik subyektlari investitsiyalarini moliyalashtirish manbalari tarkibida so'nggi yillarda sezilarli tarkibiy o'zgarishlar yuz bergan. Tahlil qilinayotgan davrda investitsiya manbalari o'rtasidagi nisbatlar qayta taqsimlangan. Xususan, hukumat kafolati ostida jalb etilgan chet el investitsiyalari va kreditlari 2023-yildagi 783,8 mlrd so'mdan 2024-yilda 645,9 mlrd so'mga kamayib, qariyb 17,6 foizga qisqargan.

Korxonalar mablag'lari, mahalliy byudjet hamda aholi mablag'lari hisobidan moliyalashtirish 2023-yildagi 4 507,0 mlrd so'mdan 2024-yilda 4 991,6 mlrd so'mga yetib, taxminan 10,8 foizlik o'sishni namoyon etgan. Bu ichki moliyaviy resurslarning investitsiya jarayonlaridagi roli tobora mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi.

Eng yuqori o'sish to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiyalar hamda kreditlar hisobiga kuzatilgan. Ularning hajmi 2023-yildagi 9 579,4 mlrd so'mdan 2024-yilda 43 313,3 mlrd so'mga yetib, qariyb 4,5 baravarga yoki 352 foizga oshgan. Bu viloyatda xorijiy kapital ishtirokining faollashgani hamda investitsion jozibadorlikning sezilarli darajada oshganidan dalolat beradi.



Aksincha, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari 2023-yildagi 2 626,6 mlrd so'mdan 2024-yilda 400,7 mlrd so'mga tushib, qariyb 84,7 foizga kamaygan. Bu investitsiyalarni moliyalashtirishda bank kreditlari ulushining qisqarib, asosan xorijiy investitsiyalar hisobiga o'rin almashganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, 2024-yilda Namangan viloyatida investitsiyalarni moliyalashtirish tarkibida xorijiy investitsiyalar ulushi keskin oshib, investitsion modelda tashqi moliyaviy manbalarning ahamiyati kuchaygan. Bu holat hudud iqtisodiyotiga yirik kapital oqimini ta'minlash bilan birga, investitsiya manbalarini diversifikatsiya qilish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash zaruratini ham yuzaga keltiradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar investitsiya jarayonlarining faollashuviga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha investitsiyalar taqsimotini o'rganish kichik korxonalar va mikrofirmalarning sanoat, qurilish, savdo hamda xizmatlar sohaslaridagi o'rnini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi (3-jadval).

3-jadval. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (mlrd so'm)³

№	Iqtisodiy faoliyat turi	Yillar				
		2020	2021	2022	2023	2024
	Jami	77 487,9	85 221,1	99 981,0	145 842,8	231 829,5
1	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	5 722,1	5 891,0	5 053,2	5 172,9	9 073,7
2	Sanoat	37 890,6	39 248,8	51 507,1	91 775,1	131 549,2
3	Qurilish	7 979,9	13 266,2	12 794,2	15 148,9	34 644,0
4	Savdo	10 378,2	7 101,3	7 732,3	11 212,5	22 542,2
5	Tashish va saqlash	2 671,7	1 999,7	4 047,6	4 235,3	7 463,9
6	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	2 062,2	3 090,8	1 428,7	3 410,8	3 726,2
7	Axborot va aloqa	580,2	677,6	726,2	514,1	2 269,2
8	Moliyaviy va sug'urta faoliyati	369,2	74,7	82,9	124,1	475,3
9	Ta'lim	287,5	260,1	376,3	247,7	571,1
10	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	1 492,7	2 384,5	2 721,2	1 766,6	3 186,4
11	San'at, ko'ngil ochish va dam olish	282,7	515,1	327,7	186,5	199,9
12	Boshqa turlari	7 770,9	10 711,3	13 183,6	12 048,3	16 128,4

Jadval ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari 2020–2024-yillarda barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etganini ko'rsatadi. Jami investitsiyalar hajmi 77 487,9 mlrd so'mdan 231 829,5 mlrd so'mga yetib, qariyb uch baravarga oshgan. Bu kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi investitsion faolligi sezilarli darajada kuchayganini anglatadi.

Tarmoqlar kesimida investitsiyalarning asosiy qismi sanoat sohasiga to'g'ri kelib, ushbu yo'nalishda kapital qo'yilmalar 3,5 baravarga oshgan. Qurilish va savdo sohaslarida ham sezilarli o'sish kuzatilib, mazkur tarmoqlar kichik biznes investitsiyalarining muhim yo'nalishlariga aylangan. Xizmatlar sektorida, xususan tashish va saqlash, yashash va ovqatlanish hamda axborot va aloqa sohaslarida ham ijobiy dinamika saqlanib qolgan.

Ijtimoiy yo'naltirilgan tarmoqlar — ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohaslarida investitsiyalar hajmi nisbatan kam bo'lishiga qaramay, 2024 yilda ularning o'sishi kuzatilgan. Umuman olganda, investitsiyalar tarkibida sanoat va qurilish yetakchi o'rinni egallab, kichik biznesning iqtisodiy o'sishdagi rolini yanada mustahkamlayotganini ko'rsatadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati hudud iqtisodiyotining ochiqligi va raqobatbardoshligini baholashda muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Eksport va import hajmlarini tahlil qilish kichik biznesning xalqaro savdo jarayonlaridagi ishtirok darajasini, hududning eksport salohiyatini hamda importga bog'liqlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Namangan viloyatida kichik biznes subyektlarining tashqi savdo operatsiyalari so'nggi yillarda bosqichma-bosqich kengayib, eksport va import tarkibida muayyan tarkibiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Ushbu jarayonlarni tizimli baholash hududda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini, tashqi bozorlar bilan

3 O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



integratsiya darajasini hamda savdo balansida shakllanayotgan tendensiyalarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tashqi savdo ko'rsatkichlari eksport salohiyati ortib borayotganini ko'rsatsa-da, import hajmining yuqoriligi ayrim mahsulot turlari bo'yicha ichki ishlab chiqarish yetarli darajada rivojlanmaganidan dalolat beradi. Xizmatlar sohasida ishlab chiqarish hajmining bandlikka nisbatan tezroq o'sishi mehnat unumdorligining oshayotganini ko'rsatadi, biroq yuqori qo'shilgan qiymatga ega xizmatlar ulushi hali yetarli darajada shakllanmagan.

Mazkur masalalarni hal etish uchun, birinchi navbatda, investitsiyalarni hududlar kesimida muvozanatli taqsimlash mexanizmlarini kuchaytirish, chekka tumanlarda infratuzilma va biznes muhitining jozibadorligini oshirish zarur. Ikkinchidan, kichik biznesni moliyalashtirishda ichki manbalar ulushini kengaytirish, uzoq muddatli imtiyozli kreditlar hamda muqobil moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish hamda yuqori texnologiyali va bilimga asoslangan xizmatlar sektorini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi lozim. Mazkur chora-tadbirlar orqali kichik biznesning hududiy raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash va aholi bandligini kengaytirish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" O'RQ-328-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-2006789>
2. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha yillik statistik to'plam. – Toshkent, 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Hududlar investitsiya faoliyati bo'yicha tahliliy hisobotlar. – Toshkent, 2023.
4. Vahobov A., Xajibakiev Sh., Raxmonov N. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
5. Karimov B., Tursunov R. Hududiy iqtisodiyot va kichik biznesning rivojlanishi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
6. Islomov S., Normurov D. Kichik biznes va investitsion jarayonlar: amaliy masalalar. – Toshkent: Iqtisodiyot va moliya, 2021.
7. O'zbekiston Respublikasi. "Mikro, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2017.
8. Akramov J., Yusupov F. Hududiy investitsiya muhiti va kichik biznes subyektlari samaradorligi. – Namangan: NamDU nashriyoti, 2022.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
